



Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi

ONA TILI TA'LIMIDA ESSE TURLARI VA ESSE YOZISH STRATEGIYASI

Shohruh ABDURAIMOV,
PhD, Talimni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi bosh mutaxassisi

DARS REJASI

ESSE VA UNING TURLARI

ESSENING BAHOLASH
MEZONI VA YOZISHDA YO'L
QO'YILADIGAN XATOLAR

REJALAR

ESSENING TUZILISHI VA
YOZISH STRATEGIYASI

ESSE VA INSHONING FARQI

INSHO

DIKTANT

ESSE?

BAYON

ADABIY JANR




ESSE

(frans. *tajriba*)

Muayyan vaziyat yuzasidan shaxsiy fikr-mulohazlar fakt va dalillarga tayanib puplitsistik uslubda yozma bayon qilinadigan ixcham ijodiy matn.

ESSE VA UNING TURLARI




ARGUMENTLI – MUOHAMA ESSESI

Kasallikka chalinganda xalq tabobati asosida davolanish ma'qulmi, yoki doktor tavsiyalaridan foydalangan afzal?

Ushbu vaziyat yuzasidan fikringizni yozma bayon eting.

- ❖ O‘quvchilarga *muhokamatalab vaziyat* beriladi.
- ❖ Ushbu vaziyat yuzasidan *o‘z pozitsiyasini yozma bayon etish* talab etiladi.
- ❖ *Puplitsistik uslubda* yoziladi.

ESSENING TUZILISHI



ESSENING KIRISH QISMI

Mavzu qayta nomlanadi, ya'ni umum jihatdan batafsil izohlanadi. O'quvchi mavzuga olib kiriladi, kirish va asosiy qism bog'lanadi.

ESSENING ASOSIY QISMI

1-tezisga munosabat bildirish:
berilgan birinchi qarash yuzasidan o‘z pozitsiyalarini bayon etish, va faklarga tayanib asoslash va izohlash.

2-tezisga munosabat bildirish:
taqdim etilgan ikkinchi qarash yuzasidan o‘z pozitsiyalarini bayon etish, dalil va faklarga tayanib asoslash va izohlash.

ESSENING XULOSA QISMI

Asosiy qismda keltirilgan fakt va dalillarga asosida xulosaga kelish, fikrni yakunlash, o‘z pozitsiyasini bayon etish.

MUOHAMA ESSESINING TARKIBIY QISMLARI

MAKTABNI BITIRGACH, QAY YO'LDAN BORGAN MA'QUL: OLIY TA'LIMDA O'QISH YOKI ISHGA KIRISH?

O'quvchilar 10- va 11-sinflarga kelib maktabdan keyingi hayot haqida o'ylay boshlashadi. Ayrimlar oliy ta'lif muassasasiga kirishni rejalashtirsa, kimlardir tezroq ishga joylashishni – karyera qilishni ma'qul ko'radi.

Moliyaviy holatiga ko'pchilik havas qiladigan mashhurlarning hayot tarzini tahlil qilar ekanmiz, kimdir birinchi, boshqasi ikkinchi yo'ldan borganiga guvoh bo'lamiz. Demak, har ikki yo'l bilan muvaffaqiyat qozonish mumkin ekan.

Maktabni bitirib oshga kirishning qator afzalliklari bor: moliyaviy barqarorlikka tezroq erishiladi, oila qurish yoshida o'z ishxonasi va mablag'iga ega bo'ladi. Qolaversa, hozir ko'pchilik ish beruvchilarga diplom emas, balki ish malakasi muhimroq. Masalan, daromadli sohalardan bo'lmish axborot texnologiyalari bo'yicha ishlayotganlarning ko'pchiligi oliy ta'lifda o'qimagan.

Biroq masalaning boshqa jihatni ham bor: ayrim sohalarda faqat oliy ta'lif muassasasida o'qibgina ishlash mumkin. Xirurg, stomatolog, terapevt bo'lmoqchimisiz, marhamat, o'qing. Davlat idoralarida mansab kursilarini egallash uchun, albatta, diplom kerak. Qolaversa, talabalik yillari – oltin davr: unutilmas onlar, yangi do'stlar, yoqimli mashaqqatlar... Ko'pchilik universitetlarda xorijga chiqish uchun imkoniyat mavjud. Eng muhimi, talaba o'qish bilan birga ishni ham olib ketishi mumkin. Bunga to'sqinlik yo'q. Ham o'qib, ham ishlash imkonini bo'la turib, faqat ishni tanlashdan nima naf?!

Yuqorida fakt va dalillarga asoslanib men maktabni bitirib, oliy ta'lifda o'qish kerak deb hisoblayman.


MAVZU

KIRISH

ASOSIY QISM

XULOSA

ESSE YOZISH STRATEGIYASI



ESSENI YOZISHGA TAYYORLANISH

- mavzuni o‘rganish
- ma’lumotlar to‘plash
- ma’lumotlarni saralash
- tayanch tushunchalarni yozib olish
- iqtiboslar ro‘yxatini shakllantirish

ESSENI YOZISH (qoralama)

- **kirish qismini**
shakllantirish
- **asosiy qismni**
shakllantirish (o‘z
pozitsiyasini dalillash);
- **xulosalash**

ESSENI QAYTA ISHLASH

- Mazmuniy jihatdan qayta ko‘rib chiqish;
- Imloviy jihatdan tekshirish;
- Ishoraviy jihatdan tekshirish;
- Uslubiy jihatdan tahrirlash;
- Oqqa ko‘chirish.

ESSENING TIL XUSUSIYATLARI



- Publitsistik uslubda yoziladi;
- Murakkab konstruksiyali sodda va qo'shma gaplardan foydalaniladi;
- Adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinadi;
- O'rinsiz badiiy tasvir vositalaridan foydalanilmaydi.

ESSENI BAHOLASH MAZMUNI



BAHOLASH MEZONI

T/r	2 ball	1,5 ball	1 ball	0,5 ball	0 ball
TOPSHIRIQ TALABLARINING BAJARILGANLIGI					
1	Esse to'liq publitsistik uslubda yozilgan.	Ayrim o'rnlarda publitsistik uslubdan chekinilgan.	Esse qisman publitsistik uslubda yozilgan.	Esse to'liq badiiy uslubida yozilgan.	Esse to'liq so'zlashuv uslubida yozilgan.
2	Vaziyat yuzasidan har ikkala qarash hamda talabgorning shaxsiy qarashlari to'la yoritilgan.	Vaziyat yuzasidan har ikkala qarash yoritilgan, talabgorning shaxsiy fikri yoritilmagan.	Vaziyat yuzasidan qarashlarning bittasi to'la yoritilgan.	Vaziyat yuzasidan qarashlarning faqat bittasi qisman yoritilgan.	Vaziyat yuzasidan qarashlar yoritilmagan.
3	Har ikkala qarash dalillar bilan asoslangan.	Faqat bitta qarash dalillangan.	Har ikkala qarash uchun keltirilgan ayrim dalillar vaziyatga mos emas.	Har ikkala qarash uchun keltirilgan dalillar vaziyatga mos emas.	Har ikkala dalillanmagan.
MATN YAXLITLIGI (NUTQ KOMPOZITSIYASI, NUTQNING MANTIQIYATI)					
4	Kirish, asosiy qism va xulosa to'la yoritib berilgan.	Esse qismlaridan faqat ikkitasi to'la yoritilgan.	Esse qismlaridan ikkitasi yuza yoritilgan.	Esse qismlaridan faqat bittasi to'la yoritilgan.	Esse qismlaridan faqat bittasi yuza yoritilgan.
5	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da xatolik kuzatilmagan. Esse xatboshilarga to'g'ri ajratilgan.	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da yoki esseni xatboshilarga ajratishda (1-2 o'rinda) xatolikka yo'l qo'yilgan.	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da yoki esseni xatboshilarga ajratishda (3-4 o'rinda) xatolikka yo'l qo'yilgan.	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da yoki esseni xatboshilarga ajratishda (5-6 o'rinda) xatolikka yo'l qo'yilgan.	Mantiqiy-qurilish (matn qismlari yoki gap qurilishi)da 7 va undan ko'p o'rinda xatolikka yo'l qo'yilgan. Esse xatboshilarga umuman ajratilmagan.
6	Mantiqiy-mazmuniy izchillikka to'liq rioxaya qilingan. Fikrlar takrori kuzatilmagan.	Fikrlar takrori uchragan (1-2 o'rinda), mantiqiy-mazmuniy izchillik buzilmagan.	Fikrlar takrori uchragan (3-4 o'rinda), mantiqiy-mazmuniy izchillik buzilgan.	Fikrlar takrori uchragan (5-6 o'rinda), mantiqiy-mazmuniy izchillik buzilgan.	Fikrlar takrori 7 va undan ortiq o'rinda uchragan, mantiqiy-mazmuniy izchillik buzilgan.
SAVODXONLIK (NUTQNING TO'GRILIGI)					
7	Imlo bilan bog'liq xatolik umuman uchramagan.	Imlo bilan bog'liq xatolik 1-2 o'rinda uchragan.	Imlo bilan bog'liq xatolik 3-4 o'rinda uchragan.	Imlo bilan bog'liq xatolik 5-6 o'rinda uchragan.	Imlo bilan bog'liq xatolik 7 va undan ortiq o'rinda uchragan.
8	Punktuatsion xatolik umuman uchramagan.	Punktuatsion xatolik 1-2 o'rinda uchragan.	Punktuatsion xatolik 3-4 o'rinda uchragan	Punktuatsion xatolik 5-6 o'rinda uchragan	Punktuatsion xatolik 7 va undan ortiq o'rinda uchragan.

BAHOLASH MEZONI

T/r	2 ball	1,5 ball	1 ball	0,5 ball	0 ball
TIL BIRLIKHLARI USLUBIYATI (NUTQNING JO'YALILIGI)					
9	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik umuman uchramagan.	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik 1-2 o'rinda uchragan.	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik 3-4 o'rinda uchragan.	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik 5-6 o'rinda uchragan.	Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq xatolik 7 va undan ortiq o'rinda uchragan.
10	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik kuzatilmagan.	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik 1-2 o'rinda kuzatilgan.	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik 3-4 o'rinda kuzatilgan.	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik 5-6 o'rinda kuzatilgan.	So'z qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik 7 va undan ko'p o'rinda kuzatilgan.
LUG'AT BOYLIGI (NUTQNING BOYLIGI, IFODALILIGI VA SOFLIGI)					
11	Leksik xilma-xillik kuzatilgan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan unumli foydalanilgan.	Leksik xilma-xillik kuzatilmagan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan ayrim o'rnlarda foydalanilgan.	Leksik xilma-xillik kuzatilgan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan foydalanilgan ayrim noo'rin o'rnlarda foydalanilgan.	Leksik xilma-xillik kuzatilmagan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan noo'rin foydalanilgan.	Leksik xilma-xillik kuzatilmagan: tasviriy ifodalar, vaziyatga mos maxsus leksik birliklar va boshqa barqaror birirkmalardan foydalanilmagan.
12	Noo'rin qo'llangan shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning qo'llanishiga oid xatoliklar 1-2 o'rinda uchragan, ammo uslubiy g'alizlik yuzaga kelmagan.	Shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning qo'llanishiga oid xatoliklar 1-2 o'rinda uchragan, ammo uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan.	Shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning qo'llanishiga oid xatoliklar 3-4 o'rinda uchragan, uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan.	Shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning qo'llanishiga oid xatoliklar 5-6 o'rinda uchragan, uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan.	Shevaga oid so'z yoki qo'shimchalar, vulgarizm, varvarizm, parazit so'zlarning qo'llanishiga oid xatoliklar 7 va undan ko'p o'rinda uchragan, uslubiy g'alizlik yuzaga kelgan.
JAMI: 24 BALL					

ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XOTILIKLAR

- 1) mavzudan chekinish;**
- 2) matn yaxlitligiga amal qilmaslik;**
- 3) o'z fikriga o'zi qarshi chiqish;**
- 4) mantiqiy izchillikning buzilishi;**
- 5) o'rinsiz badiiy tasvir vositalardan foydalanish;**
- 6) uslubiy chekinishlarning kuzatilishi;**

7) imloviy xatolar;

8) ishoraviy xatolar;


9) matn va xulosa mos bo‘lmasligi;

10) hajmiy talablarga amal qilaslik.

INSHO VA ESSE FARQI

INSHO

- ❖ *Adabiy mavzularda yoziladi.*
- ❖ *Maxsus bilimni talab qiladi.*
- ❖ *Badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi.*
- ❖ *Fikrni ta'sirchan ifodalash ustuvor bo'ladi.*
- ❖ *Reja asosida yoziladi.*
- ❖ *Tuzilishi jihatidan farq qiladi(mavzu, reja, epigraf, kirish, asosiy qism, xulosa)*
- ❖ *Sta'limda adabiy, ijodiy va erkin mavzudagi insholardan faol foydalaniladi.*
- ❖ *Inshodan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchida yozma nutqini ta'sirchan ifodalash ko'nikmasini ivojlantirish*



ESSE


- ❖ *Autentik mavzularda yoziladi.*
- ❖ *Maxsus bilimni talab qilmaydi. Hayotiy tajriba va bilimni talab qiladi.*
- ❖ *Argumentlardan unumli foydalaniladi.*
- ❖ *Fikrni ishonchli ifodalash ustuvor bo'ladi.*
- ❖ *Reja qo'yilmaydi.*
- ❖ *Tuzilishi jihatidan farq qiladi(mavzu, kirish, asosiy qism, xulosa)*
- ❖ *Ta'limda argumentli (muhokama), qiyosiy, analitik, interpretatsion hamda muammo va yechim esselalaridan faol foydalaniladi.*
- ❖ *Essedan ko'zda tutilgan maqsad o'quvchida hayotiy vaziyatlarga yozma tarzda munosabat bilidirish ko'nikmasini rivojlantirish*

NAMUNAVIY MAVZULARI

1. Bugungi kunda ba'zi insonlar davlat byudjetidagi mablag'lar sportga ko'proq sarflanishi kerakligini aytmoqda, ayrimlar esa ta'limga pul ajratish manfaatliroq deb hisoblashmoqda.
2. Yosh bolalar jinoyatga qo'l urganda ba'zilar ularning ota-onalarini jazolash kerak deb o'ylashadi, ayrim insonlar esa bolaning o'zini jazolash kerak deyishadi. Siz qanday fikrdasiz.
3. Ayrimlar o'quvchilar 10, 11-sinfda bo'lajak mutaxassisligi uchun kerak bo'lgan fanlarnigini o'qishi kerak deb hisoblaydilar. Boshqalar esa mifikta ta'limidagi barcha fanlarni o'qish o'quvchilarni shaxs sifatida shakllantiradi degan fikrdalar.
4. Ayrimlar bo'lajak mutaxassislar uchun xorijiy tillarni o'rghanish juda muhimligini ta'kidlashadi, Boshqalar esa chet tilini o'rghanish bosh maqsadga aylanmasligi kerakligini, xorijiy til vosita ekanligini aytishadi.
5. Ba'zilar o'ziga rasmiy bo'lмаган, qulay kiyimlarni kiyishni ma'qul ko'radi. Boshqalar esa rasmiy kiyimlarda o'zini qulay his etadi.
6. Ayrimlar baxtli bo'lish insonning o'ziga bog'liq, deb hisoblaydi, boshqalar esa insonning baxtli bo'lishi atrofidagilariga bog'liq, deyishadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Clark, R. P. (2008). Writing tools: 55 essential strategies for every writer. Little, Brown Spark.
2. Shiach, D. (2009). How to write essays: a step-by-step guide for all levels, with sample essays. Hachette UK.
3. Birkenstein, C., & Graff, G. (2018). They say/I say: The moves that matter in academic writing. WW Norton & Company.
4. Ramage, J. D., Bean, J. C., & Johnson, J. (1998). Writing arguments: A rhetoric with readings (p. 765). Boston: Allyn and Bacon.
5. Lunsford, A. A., Ruszkiewicz, J. J., & Walters, K. (2001). Everything's an Argument (p. 568). Boston, MA: Bedford/St. Martin's.
6. B. Mengliyev va boshq. (2022) Ona tili. 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, – B. 224
7. <https://uzbmb.uz/>



E'TIBORINGIZ
UCHUN RAHMAT!

